



## BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA DUCH KELINADIGAN DOLZARB MUAMOLAR

**Hatamova Ruhshona Azimjon qizi**

*SamDCHTI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish muammolari yoritib berilgan. Xususan, xorijiy tillarni o'qitishda yangi metodika va dars ishlanmalarini joriy etish va shu bilan birga o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o'tishning noan'anaviy usullarini joriy etish ko'zda tutilgan

**Kalit so'zlar:** estetik tarbiyalash, hozirjavoblik, o'quv mashg'ulotlari, "Kid's English", "Deutsch macht spab", "Hirondelle"

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi oldida turgan dolzarb vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug` maqsadni ro`yobga chiqarish xalq ta'limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o'qituvchilar ommasidan o`z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o`ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta`lim olayotgan o`quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo`lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir.

Farzand dunyoga kelishi bilan ota-onasiga qarindosh-urug`lari kundan-kun o'sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko`rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro`yobga chiqayotganligining guvohi bo`ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o`z bolasining qo'l-oyoq va gavda harakatlarini o`yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o`yin bilan bog`liq bo`ladi. Asta-sekin o`yin yosh bola hayotining asosiy mashg`ulotiga aylanadi. O`yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir.

Mazku maqolada boshlang`ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish muammolari va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi.

Maktabga ilk qadam qo`yayotgan kunda ota-onaning hayajoni birinchi sinfga chiqqan dilbandidan-da ko`proq bo`ladi. Farzandining jazzi qo'llaridan tutib



maktabga yetaklayotgan kattalar ko`nglining bir chetida bolajonim shu ta`lim dargohiga qanday ko`nikarkan, darslarni o`zlashtirishda qiyalmasmikan, degan hadik bo`ladi. Bugun maktabga ilk bor qadam qo`ygan o`quvchining kechagi mashg`uloti o`yin edi. Bolada boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan materiallarni o`zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga mo`ljallangan bilimlarning o`zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o`rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Tasavvur qiling, o`quvchi ma`lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin mакtab o`quvchisi bo`ladi. Uning vazifasi o`zgaradi. Bir kecha- kunduzda o`rtacha 4 soat ta`lim oladi. Kechagi o`yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab... o`qituvchi bilan muloqatda bo`ladi. O`quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o`qituvchi loqayd, mas`uliyatsizlik qilsa, uning bu holati otaonalarning holati bilan hamohang bo`lib qolsa, ota-onha ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga "vaqt yo`q" bo`lsa, o`sha o`quvchilar bo`sh o`zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o`quvchilarga aylanadilar. O`z kasbinining mohir ustasi bo`lgan fidokor o`qituvchi ana shu paytda o`quvchilarni qo`lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o`quv mashg`ulotlariga qiziqish uyg`otadi<sup>1</sup>.

Har bir xorijiy tili darslari xuddi zina kabi yuqoriga qarab qo`yilgan qadam misoli bo`lmog`i o`qituvchidan yangicha usul, ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi xorijiy til o`qituvchisi zamon bilan hamnafas, taraqqiyot robitlaridan boxabar, olamda kechayotgan jarayonlar haqida o`z fikriga ega shaxs bo`lishi kerakligini davrning o`zi taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatda xorijiy tillarning o`rganilishi ko`p omillarga bog`liqdir. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va uning xalqaro miqyosdagi munosabatlari hamda hududiy va global tarmoqqa aloqadorlik darajasi xorijiy tillarni o`qitish masalalariga hamda ularning o`rganish ketma-ketlik tartibiga ham ta`sir etadi. Xorijiy tillarni o`rganish jarayonida birinchi chet tili markazda umumta`lim maktablari boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun chet tillarni o`rganish bo`yicha turli qo`llanmalar ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Mazkur qaror asosida ishlab chiqilgan yangi o`quv rejaga ko`ra, 1 - 4 sinflarga haftasiga ikki soatdan chet tili fani kiritildi va uni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilandi. Shu maqsadda yangi davlat ta`lim standartlari va o`quv

<sup>1</sup> Umarova A. O`yin musobaqa darsi // Boshlang`ich ta`lim. 1992. 1-son , 48-bet.



dasturlari asosida 1-sinflar uchun ingliz "Kid's English", nemis "Deutsch macht spab", fransuz "Hirondelle" tillaridan darslik majmualari yaratildi. Bu majmualar o'quvchi kitobi, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va multimediali ilovalar (DVD diskdan) iborat. E'tiborli jihat shundaki, qo'llanmalarni farzandlariga yordam berish bahonasida ota-onalar, buvijon-u buvajonlar ham o'qishlari, jiddiyroq harakat qilishsa, o'zlari ham o'zlashtirishlari mumkin.

Boshlang`ich ta`limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O`quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o`tishning noan`anaviy usullari, xususan, interfaol usul keng joriy etilayapti. Dars o`tishning zamonaviy pedagogik uslublariga doir ko`plab qo'llanmalar mavjud. Xususan, "Chet tilidagi yangi so`zlar qanday bayon qilinganda uning necha foizi o'quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o'zlashtiriladi?." Degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o'tkazilgan tajribalar yakuni "xotirada saqlash" degan nomni oldi. Unga ko`ra o'quvchi yangi so`zlar sonini:

- faqat eshitganda uning 10-20% i;
- eshitsa va so`zlarga oid ko`rsatmali materiallar bilan tanishsa, uning 30-50% i;
- eshitsa, yangi so`zlar bo'yicha amaliy mashg`ulotlar bajarsa, so`zlarni tarjimalari bilan o'rtoqlariga aytib bersa, tushuntirsa, ular bilan mazkur so`zlardan foydalangan holda muloqatda bo`lsa, yangi so`zlarning 60-90%i yodda qoladi, o'zlashtiriladi.

Binobarin, o'qituvchi sinfga kirib o'quvchiga faqat ma`ruza o`qib chiqib ketishining foydasi kam bo`ladi. O'quvchi har bir o'rgangan mavzusi yuzasidan o'rtoqlari, o'qituvchisi bilan o`zi muloqotga kirishishi, dars davomida olgan bilimlarni gapirib bera olishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustahkam bo`ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo`ldosheva Sh. Savod o`rgatish. T. "O'qituvchi" 1996 y.
2. Mardonova. Boshlang`ich sinflarda ta`lim-tarbiyani takomillashtirish. "Sharq" 1998.